«КЕЛИШИЛДИ»
Тошкент вилоят хокимининг
қурилиш, коммуникациялар, коммунал
хўжалик, экология ва
кўкаламзорлаштириш масалалари
бўйича ўринбосари
_____
«_____» _____ 2026 й.

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва уй жой коммунал
хўжалиги вазирлиги
_____
«____» _____ 2026 й.

«КЕЛИШИЛДИ»
Тошкент вилояти
Қурилиш ва уй-жой коммунал
хўжалиги бошкармаси бошлиғи
_____
«____» _____ 2026 й.

«КЕЛИШИЛДИ»
"Иссиқлик таъминоти" АЖ
_____
«____» _____ 2026 й.

ЛОЙИҲАЛАШ ТОПШИРИҒИ

Чирчиқ шаҳридаги "Ўзбекхиммаш" қозонхонаси ва иссиқлик тармоғини модернизация қилиш, индивидуал иссиқлик пунктларини ўрнатиш

Тошкент – 2026й.

Т/р	Асосий маълумотлар ва талаблар номи	Асосий маълумотлар ва талаблар мазмуни
1.	Буюртмачи	"Иссиқлик таъминоти объектлари бўйича инжиниринг компанияси" ДМ
2.	Қурилиш жойи.	Тошкент вилояти Чирчиқ шаҳри
3.	Обектнинг номи.	Чирчиқ шаҳридаги "Ўзбекхиммаш" қозонхонаси ва иссиқлик тармоғини модернизация қилиш, индивидуал иссиқлик пунктларини ўрнатиш
4.	Лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқиш учун асос.	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025-йил 27-декабрдаги ПҚ-393 сонли қарори
5.	Лойиҳа боскичи.	Ишчи лойиҳа
6.	Қурилиш тури.	Янги ва реконструкция
7.	Лойиҳа ташкилоти.	Тендер савдолари асосида.
8.	Қурилиш пудрат ташкилоти.	Тендер савдолари асосида.
9.	Обектнинг лойиҳавий қуввати.	9,5 км иссиқлик тармоғи модернизация қилинади, мавжуд 14,4 Мвт лик қозонхона модернизация қилиниши лозим. *(Лойиҳалаш даврида қозонхона қувватига аниқлик киритилсин)*
10.	Молиялаштириш манбаи.	Ўзбекистон Республикаси бюджети.
11.	Қурилишнинг тахминий баҳоси	2027 йил учун лимит 33.2 млрд сўм Охирги маблағ экспертиза хулосалари асосида аникланади.
12.	Обектнинг асосий техник-иктисодий кўрсаткичлари, унумдорлиги, ишлаб чикариш дастури, шунингдек, турар жой ёки умумий бинолар.	37 та кўп хонадонли уйларнинг 1033 та хонадони ва 4 та ижтимоий соҳа обектларини иссиклик билан камраб олиш белгиланган. Кўп хонадонли уйларга ИИП (Индивидуал иссиқлик пунктларига) ўрнатилиш кўзда тутилади. Кўп хонадонли уйларга ИИП дан сўнг, ички иссиклик тизими ва иссик сув тизими лойихалансин (магистрал тармок). Бунда ертўлада магистрал иссиклик кувурлари бажарилиб, вертикал тик кувурлар инобатга олинсин. Хонадонларга таркатувчи иситиш, иссик сув тармоғи ва хоналар радиаторлари хонадон эгалари томонидан бажарилиши инобатга олинсин. Мавжуд кўп хонадонли уйларнинг режаларини ўлчаш ишлари лойиҳа ташкилоти томонидан бажарилади.
13.	Обектни технологик жиҳозлаш.	Мавжуд қозонхонани модернизация қилиш; Иссиклик тармокларини замонавий ППУ кувурларда лойиҳалаш ШНҚ 2.04.07-22га мувофик.
14.	Муҳандислик, Технологик жараёнлар ва ускуналарга қўйиладиган асосий талаблар.	**<u>Қозонхонага қўйиладиган талаблар:</u>** Қозонхона қуввати 14.4 Мвт этиб лойиҳалансин. Ишчи босим 10 кгс/см^2 гача; – Ишчи харорат 115-70°С; Иссиклик тармогининг чиқиш жойида иссиклик ўлчаш мосламалари ўрнатилсин (ултразвуковой счетчик) ва ҳар бир козонлар учун расходемер

		инобатга олинсин. Табиий газни асосий ёқилғи этиб қабул қилинсин. Мукобил ёқилғи сифатида печ ёқилгиси, ёки дизел ёкилгиси инобатга олинсин. Мукобил суюк ёкилги учун 1 та козон ишланиши ва комбинатцияланган ёндиргичли (горелка) ҳисобга олинсин. Захира баки ер остида ёки алохида бинода лойихаланиши лозим. Қозонхона лойиҳаси индивидуал равишда ишлаб чиқилади ва лойиҳаланади бунда ҳар бир бўлимлар алохида ишлаб чиқилсин (модул тизим танланмасин). Қозонхонада, оператор хонаси, ҳожатхона, ҳамда кийим алмаштириш хонаси ва шу кабилар инобатга олинсин. Қозонхона ҳудудини чегаралаш ҳамда кўча ёритгичларини ўрнатиш, козонхона учун видеокузатув жорий этиш лойиҳалансин. Қозонхона ичидаги жихозларни (насос, горелка задвижка ва шу кабилар) эксплуататсия ва таъмирлаш вактида кўтариш қулай бўлиши учун мобил кран балка ёки асосий таянчда кранбалка инобатга олинсин. – **Қозонларнинг энергия самарадорлиги учун қўйиладиган мажбурий талаблар:** Қозонлар танланишида фойдали иш коеффициенти (ФИК) 92% дан юкори технологияларни инобатга олиш зарур; -Кимёвий сув тозалаш ускуналари ўрнатиш (ХВО); -Тежамкор насослар танлаш ва ўрнатиш; -Энергия тежаш бўйича замонавий технологияларни жорий этиш (Газ, электр ва сув истеъмолини камайтириш бўйича замонавий технологиялар жорий этиб, модемлик хисоблагичлар ўрнатилсин; -Насосларни ишлаш принципларида энергиясини частота тартибга солиш тизими жорий этилсин; -Тизимни автоматлаштириш ва диспетчерлик назорати жорий этиш назарда тутилсин. Қозонхона лойиҳалашда том кисмида қуёш панеллари кўзда тутулсин. Экологияни асраш ва атроф-мухитга тасирни минималлаштириш максадида, козонхона чикинди газларининг таркибини доимий эмиссия назорат

		қилиш тизими (СЕМС) ўрнатилиши назарда тутилсин. Қозонхона лойиҳалашда ШНК 2.04.13-24 Қозонхоналар меъёрлари ва қоидаларига риоя қилинсин. **<u>Иссиқлик тармоқларига қўйиладиган талаблар:</u>** Иссиқлик тизими "Ёпиқ" тизимда мўлжаланган бўлиши лозим; Иссиклик тармокларини лойиҳалашда ҳимоя қобигига эга пенополиуретан (ППУ) коплама билан олдиндан изоляцияланган ва Тезкор Масофавий Назорат Тизими (ТММТ) ўрнатилган, ГОСТ 30732-2020 талабларига мувофиқ қувурлардан фойдаланилсин. Қувурларни лойиҳда ер остида ётқизизилиш назарда тутилсин. Ҳудуй ҳокимлик ва иссиқлик манбаи талаблари асосида бази худларда ер устидан ўтказилишида рухсат берилади. Иссиқлик тармоқларини лойиҳалашда тармоқлар йўналишида бузилган асфалт, бетон копламалари қайта тикланиши лозим. Иссиқлик камералари конструкциялари тўлиқ монолит шаклида лойиҳалансин. **<u>Индивидуал иссиқлик пунктларига қўйиладиган талаблар:</u>** Иссиклик энергияси ва иссиқ сув етказиб бериш учун алоҳида-алоҳида иссиқлик алмашиниш апарати (теплообменник), ўрнатиш; тизим афтоматлаштирилган шаклда бўлиши; иссиклик энергияси, иссиқ сув, совуқ (таъминот) сув, электр энергияси учун электрон хисоблагич ўрнатиш; Иссиқлик алмашиниш апарати ёйма (разборний) турда бўлиши ҳамда уларнинг қуввати иссиқлик юкламасининг 7-15% гача захирасини инобатга олиб хисоблансин. Автоматик босим ростлагичлар ва назорат валфлари (обратний клапан) билан жиҳозлансин; Бошқарув панели ва автоматик харорат ростлагичлар ўрнатилсин; ИИП ўрнатиладиган ертўла кисми тамирлансин ва эшиглари қулфланиши инобатга олинсин. Ер тўласи мавжуд бинолар истемолчилари учун ИИП ертўлага ўрнатилсин, ертўла мавжуд бўлмаган

		тақдирда ташқарига истемол қувватидан келиб чиқиб, метал каркасли сендвич панелдан бино қурилиши инобатга олинсин. ИИП лойиҳалашда қурилиш даврида сотиб олиш учун техник талаб ҳам ишлаб чиқилсин Электр ва сув таъминоти бинонинг мавжуд тармоқларга уланиш иноботга олинсин. Лойиҳанинг техник-иқтисодий кўрсаткичлари лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқиш жараёнида буюртмачи ва лойиҳа ташкилоти келишуви асосида ўзгартирилиши ёки аниқлаштирилиши мумкин.
15.	Ишлаш режими	Куз-қиш мавсумида - иссиқ сув ва иссиқлик энергияси; бошқа мавсумларда - иссиқ сув билан таъминлаш.
16.	Ташқи транспорт алоқалари ва таъминоти	Мавжуд ташқи транспорт алоқалари ва таъминот схемаларидан фойдаланиш.
17.	Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва сақлаш бўйича талаблар.	Атроф-муҳитга тасир ҳисоботи (ЗВО) лойиҳасини ишлаб чиқиш, давлат экологик экспертиза хулосани олиш.
18.	Лойиҳалашда бош лойиҳачига қўйиладиган талаблар	Давлат экологик лойиҳаси ва экалогия экспертиза хулосани олиш, топографик ишлар (топосёмка), муҳандислик-геологик тадқиқотлар (геология) ишлари, муҳандислик тармоқларга уланиш учун техник шартлар олиниши, архитектура-шаҳарсозлик кенгаши хулосаси ва қозонхона учун қурилишни назорат инпекцияси (ГАСН) хулосани олиш лойиҳа ташкилоти томонидан амалга оширилади.
19.	Мелиоратсия ва кўкаламзорлаштиришга қўйиладиган талаблар	Амалдаги қонунчилик ва қурилиш қоидаларига мувофиқ. Қозонхона атрофида дарахт кўчатлари экилиши лозим.
20.	Режалаштирилган қурилиш мудати	Обектни 2027-йилда амалга оширилади.
21.	Навбатларни ажратиш ва комплексларни ишга тушириш зарурати	Амалдаги қонунчилик ва қурилиш қоидаларига мувофиқ.
22.	Муҳандислик тадқиқотларига қўйиладиган талаблар	Топографик ишлар (топографик тадқиқот), муҳандислик-геологик тадқиқотларни (геология) ҳамда коммунал тармокларга уланиш (сув таъминоти, канализация, электр энергияси, тармоққа электр энергиясини этказиб бериш ва бошқалар) тегишли ваколатли ташкилот ва идоралардан техник шартларга мувофиқ амалга оширилиши зарур.

23.	Лойиҳани манфаатдор ташкилотлар билан дастлабки тасдиқлаш ва келишиш	Қозонхона режаси иссиқлик манбаи эксплуатация ташкилоти билан келишилсин. Иссиқлик тармоқлари схемаси йўналиши махаллий хокимлик, буюртмачи ва барча манфаатдор ташкилотлар билан олдиндан келишилсин; Қозонхона биноси учун архитектура кенгаши хулосаси олинсин.
24.	Махсус қурилиш шартлари	ШНКга мувофиқ сейсмикага карши чора-тадбирларни, шунингдек, тор шаҳар шароитида ишлашни таъминлаш.
25.	Фукаро муҳофазаси ва фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш бўйича талаблар.	Вилоят фавқулодда вазиятлар бошқармаси талаблари асосида
26.	Қабул қилинадиган лойиҳа ечимларида энергия самарадорликни таъминлаш бўйича талаблар.	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025-йил 11-мартдаги ПҚ-100-сонли қарорининг қайта тикланувчи энергия манбааларидан фойдаланиш талаби асосида электр энергиянинг маълум қисмини коплаш максадида бинонинг том қисмига қуёш панеллари ўрнатилсин.
27.	Қурилишда муаллифлик назорати.	Муаллифлик назорати бош лойиҳача ташкилот томонидан қурилишнинг бутун даврида мунтазам олиб борилади.
28	Смета ҳужжатларини бажариш талаблари	Пудратчининг бошқа харажатлари – Махаллий хокимлиг, инжиниринг компанияси томонларидан хар йилги малумотлари асосида. Қурилиш материаллари нархлари -Ўзбекистон Республикаси қурилишида фойдаланиладиган материал-техник ресурсларининг охирги каталоги ўртача нархларидан; -Иш ҳаққи – Статистика маълумотлари асоссида; -Ишлаб чиқариш характеридаги харажатлар қўлланилмасин; -Таваккалчилик коеффитсиенти қўлланилмасин; Обектни сугурталаш харажатлари ҳисобга олинсин Қурилиш чиқиндиларини чиқиндихонага чиқариш масофаси ўртача 1.5 км атрофида қўлланилсин.
29	Тақдим этиладиган лойиҳа-смета ҳужжатларининг нусхалари сони, бўлимларининг таркиби ва мазмунига бўлган талаблар.	ШНҚ 1.03.03-23га мувофиқ лойиҳа ҳужжатларини электрон ва 4 асл нусхада қоғоз шаклда, смета ҳужжатларини электрон ва 2 нусхада қоғоз шаклда тақдим этилсин. Қурилишни ташкиллаштириш лойиҳасини ишлаб чиқиб тақдим этилсин (ҚТЛ *рус ПОС*).
30.	Қўшимча талаблар.	Бош лойиҳачи лойиҳа-смета ҳужжатлари учун экспертиза хулосалари олинишида мунтазам

Рахматов

		иштирок этиши лозим. Лойиҳалаш жараёнида асосланган ҳолда лойиҳа ташкилоти томонидан буюртмачининг розилиги билан, козонларнинг қувватига, иссиклик тармокларининг узунлигига ва шунга ўхшаш бошка техник ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиши мумкин.

Буюртмачи:

"Иссиқлик таъминоти объектлари бўйича инжиниринг компанияси" ДМ

Ишалаб чиқди:

Тошкент вилояти Чирчиқ шаҳар «Иссиқликтаъминоти» МЧЖ директори: **Миртуллаев М.М**

Анистратова В.П

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги

№ 3270-8269-af9e-5fa4-a949-6247-6960
Ҳужжат яратилган сана: 2026-03-10
Ариза рақами: 260382340

Ҳужжат берилган: "QURILISH VA UY-JOY KOMUNNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI ISSIQLIK TA‘MINOTI OBYEKTLARI BO‘YICHA INJINIRING KOMPANIYASI" DAVLAT MUASSASASI
СТИР: 305301824

АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ ТОПШИРИҒИ
2026-03-10 09:30 й.
1727-1727419-256102 -сон

Лойиҳавий бино (иншоот) тури:	Chirchiq shahridagi "O‘zbekximmash" qozonxonasi va issiqlik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, individual issiqlik punktlarini o‘rnatish ishlarini loyihalashtirish.
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг манзили:	Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Yoshlik MFY hududi.
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг буюртмачиси:	"QURILISH VA UY-JOY KOMUNNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI ISSIQLIK TA‘MINOTI OBYEKTLARI BO‘YICHA INJINIRING KOMPANIYASI" DAVLAT MUASSASASI

Ушбу архитектура-режалаштириш топшириғи фақат лойиҳалаштириш ишларини амалга ошириш учун ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланиб, қурилиш-монтаж ишларини бошлашга асос бўла олмайди. Қурилиш бош бошқармасининг манзили ва телефон рақамлари: Toshkent viloyati, Nurafshon shahar, Toshkent yo`li ko`chasi 32/1-uy.

#	Архитектура-режалаштириш топшириқларининг қисмлари	Қисмларнинг мазмуни

1	**Архитектура-режалаштириш топшириқларини ишлаб чиқиш учун асос бўлган ҳужжатлар**	O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20 apreldagi “Qurilish sohasiga oid yagona ma’muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-sonli qaroriga asosan, "QURILISH VA UY-JOY KOMUNNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI ISSIQLIK TA‘MINOTI OBYEKTLARI BO‘YICHA INJINIRING KOMPANIYASI" DAVLAT MUASSASASIning Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasiga kelib tushkan 260382340-sonli buyurtma arizasi hamda, Toshkent viloyati hokimining 2026-yil 14-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27- dekabrdagi “2026—2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 393-sonli qarori ijrosi to‘g‘risidagi 10-10-0-Q/26-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasining kadastr raqami-11:20:41:01:02:0150 bo`lgan 08.01.2026 yildagi R-CHIS45905377-sonli Ko‘chmas mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Davlat Reyestridan KO'CHIRMASI
2	**Лойиҳалаштириладиган бино ва иншоот (кейинги ўринларда объект деб аталади) ер участкасининг жойлашиши ва бош режада тутган ўрни**	Qurilishi rejalashtirilgan ob`yekt Chirchiq shahar, Yoshlik MFY, Furkat ko'chasi hududida joylashgan. "QURILISH VA UY-JOY KOMUNNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI ISSIQLIK TA‘MINOTI OBYEKTLARI BO‘YICHA INJINIRING KOMPANIYASI" DAVLAT MUASSASASI tomonidan Chirchiq shahridagi "O‘zbekximmash" qozonxonasi va issiqlik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, individual issiqlik punktlarini o‘rnatish ishlarini loyihalashtirish rejalashtirilgan. Ko'chmas mulk ob`yektining nomi: Noturar bino yoki inshoot. Issiqlik manbai bino va inshootlari Yer uchastkasining toifasi: Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar. Loyihalashtirilayotgan ob`yekt: a) Chirchiq shahar hududida joylashgan; b) Loyihalashtirilayotgan ob`yekt joylashgan hudud qishloq aholi yashash punkti hisoblanadi; v) Ushbu hudud muhandislik tarmoqlari, ya’ni elektro energiya, suvoqova, gaz, aloqa tarmoqlari bilan va hududning (shu jumladan obyekt qurilishi uchun tanlangan yer maydonining) kirish yo‘llari bilan ta’minlangan. f) loyihlashtirish jarayonida avtomobil yo`llaridan muhofa qizil hududlar saqlansin, ob’yektga kirishchiqish yo`llari inobatga olinsin, ob’yektga chegaradoshlardan rozilik xati olinsin hamda zarur hollarda piyodalar yo`lagi inobatga olinsin. g) Qurilishi rejalashtirilayotgan ob`ektni qishloq xo`jaligi yerlaridan, suvli va ekin yerlaridan hamda dehqon xo`jaligi yer maydonlaridan tashqarida loyihalashtirilsin.
3	**Лойиҳалаштириладиган объект ҳудудининг табиий-иқлим кўрсаткичлари**	Loyihalashtirilayotgan obyektning yer uchastkasi 25,1 C iqlim (klimat) hududda joylashgan. Havo harorati: O‘rtacha yillik harorat: +25,1 C Eng baland harorat: + 45 C Eng past harorati: -20 C Shamolning yo‘nalishi: Iyun-avgust oylarida - shimoliysharqdan esadi. Dekabr-fevral oylari - sharq tomonga esadi. Obyekt qurilishini loyihalashtirish jarayonida erroziya (yemirilish), seldan saqlash, suv va shamol erroziyasidan saqlanish tadbirlari belgilansin.
4	**Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг геологик ва топографик жиҳатдан ўрганилганлиги**	Obyektning injenerlik holatini o‘rganish uchun “Qurilishda muxandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy tekshirish Davlat instituti” Davlat unitar korxonasiga yoki tegishli litsenziyaga ega tashkilotga 1:500 nisbatdagi topoxarita ishlab chiqish uchun buyurtma berilishi lozim. Loyiha ishlari 1:500 nisbatdagi topoxarita va injener geologik xulosalarga asosan olib borilsin hamda shaharsozlik xujjatlari ishlab chiquvchi tashkilot va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-fevraldagi 66-sonli qaroriga asosan tuman Kadastr agentligi tomonidan chegara o`lchamlariga aniqlik kiritilsin. Tuman Qurilish bo‘limi boshlig‘i (Bosh arxitektori) tomonidan, mavjud barcha muhandislik kommunikatsiyalar, zovur, yo`l muhofaza mintaqalari saqlangan xolda qurilish chizig`i chizdirilsin.
5	**Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг чегаралари ҳамда унга туташ объектлар ёки ер участкалари тўғрисида маълумот**	Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni Ko`p xonadonli turar joy binolari hududi, avtomobil yo`llari va ichki ko`chalar bilan chegaralangan.

6	**«Қизил чизиқлар ва белгилар»**	Bosh rejada hamda yo`lning hajmi orqaliq masofasi, qizil chiziqga va qurilish chiziqlariga amal qilgan holda loyiha ishlarini olib borilishi ta’minlash. Loyihalashtirilayotgan binoning loyihaviy “nol” balandlik belgisi mavjud binolar poydevor balandligiga nisbatan olinsin, ya’ni mavjud avtomobil yo‘lining baland nuqtasidan 60-90 sm baland qilib olinsin. Binoni loyihalashtirishda piyodalar yurish yo‘lagidan belgilangan tartibda normativ hujjatlarga asosan masofa tashlangan holda joylashtirish kuzda tutilsin. Ob’yekt qurilishini loyihalashtirish bo`yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Chirchiq shahar filialidan tanlangan yer maydoni tushirilgan xaritadagi belgilandan chegara hududidan chiqmagan holda loyihalashtirilishi lozim. Loyiha smeta hujjatlari tayyorlashda amaldagi me`yoriy hujjatlar asosida "Avtomabil yo`llari SHNQ 2.05.02-07 va SHNQ 2.10.09-10" to`liq rioya qilgan xolda binoni joylashtirish hamda avtomabil to`xtash maydonchasini qurish. Ob`ektni yo`l bo`lagida joylashtirish loyihasi Toshkent viloyati IIB YHXB bilan kelishish lozim

7	**Архитектура талаблари**	Chirchiq shahridagi "O‘zbekximmash" qozonxonasi va issiqlik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, individual issiqlik punktlarini o‘rnatish ishlarini loyihalashtirish bo`yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uyjoy kommunal xo‘jaligi vazirining 20.05.2024 yildagi 01/2-20-son ShNQ 2.07.01-23 “Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 02.04.2024 yildagi 01/2-7- son ShNQ 2.08.02-23 “Jamoat binolari va inshootlari” shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 29.04.2024 yildagi 01/2-16- son buyrug‘i, SHNQ2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 10.11.2023 yildagi 368-son buyrug‘i ShNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari”, ShNQ 2.09.02-19 “Sanoat binolari”; QMQ 2.07.03-97 “Korxonalar, binolar va inshootlar hududlarini to‘sish”; SHNQ 2.07.02-24 “Qurilish ob`yektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalari;ShNQ 2.01.02-04 “Binolar va inshootlarning yong‘in xavfsizligi”; ShNQ 2.01.19-22 “Portlabyonish va yong‘in xavfi bo‘lgan xonalar, bino va inshootlar hamda tashqi qurilmalar toifalarini aniqlash”; ShNQ 2.01.01-22 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma’lumotlar”; QMQ 2.01.03-19 “Seysmik hududlarda qurilish”; QMQ 2.01.05-19 “Tabiiy va sun’iy yoritish”; ShNQ 2.04.09-07 “Bino va inshootlarning yong‘in avtomatikasi”; QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsiyalash”; QMQ 2.03.13-19 “Pollar”; QMQ 2.03.10-19 “Tom va tom qoplamalar”; ShNQ 2.09.21-22 “Yong‘inqutqaruv depolari va postlari”; QMQ 3.03.01-98 “Yuk ko‘taruvchi va to‘suvchi konstruksiyalar”; QMQ 2.04.16-18 “Quyoshli issiq suv ta’minoti qurilmalari”; ShNQ 2.04.15-22 “Fotoelektrik stansiyalar (tizimlar)”; QMQ 2.04.02-19 “Suv ta’minoti, tashqi tarmoqlar va inshootlar”; QMQ 2.05.06-97 “Magistral quvuro‘tkazgichlar”lar shartlari bajarilsin. Qurilishi rejalashtirilayotgan ob`ektni qishloq xo`jaligi yerlaridan, suvli va ekin yerlaridan hamda dehqon xo`jaligi uchun mo`ljallangan yer maydonlaridan tashqarida loyihalashtirilsin. Qurilishi rejalashtirilayotgan ob`ekt davlat ahamiyatiga ega mulk va buyum chiqqan taqdirda tegishli tashkilotlarga topshirilsin. Loyihalashtirish jarayonida avtomabil yo`llaridan muhofaza qizil hududlar saqlansin, ob`ektga kirishchiqish yo`llari inobatga olinsin, ob`ektga chegaradoshlaridan rozilik xati olinsin hamda piyodalar yo`lagi inobatga olinsin. - Ob’yektning qavatliligi hududning bosh rejasi (PDP, APOT) asosida belgilansin va yon atrofda mavjud ob’yektlar balandligi hamda hududning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda loyihalashtirilsin. - Ob’yekt qurilishi ob’yektning tashqi ko`rinishi va tashqi pardozi loyihasini tuzishda milliy va sharq me’morchiligining eng yuqori milliy bezak va an’analaridan foydalanish zarur. - Loyiha hujjatlarida tashqi kuzatuv vositalarini joylashtirish ko`zda tutilsin. "Chirchiq shahridagi "O‘zbekximmash" qozonxonasi va issiqlik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, individual issiqlik punktlarini o‘rnatish ishlari"ni bosh rejasini ishlab chiqish jarayonida atrofda joylashgan binoinshootlar va daxa ichidagi yo`lak qurilish chiziqlari e’tiborga olinsin. -Obyekt qurilishini loyihalashtirishda daxa ichidagi ko`cha loyihaviy gabaritlari inobatga olinsin. - Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida bajarilgan Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlariga asosan buyurtmachi va Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan kelishilgan hamda tasdiqlangan loyiha topshiriqlariga va 1:500 nisbatli topoxaritadagi chegaralariga amal qilinsin. Ob’yekt qurilishini bosh rejasini tuzishda avtoturargoh tashkil etish sharti bilan binolar tushirilgan (joylashtirilgan) obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish ishlari aks ettirilgan 1:500 nisbatdagi topoxaritada bosh (tarx) reja ishlab chiqilsin. k) loyihlashtirish jarayonida avtomobil yo`llaridan muhofa qizil hududlar saqlansin, obyektga kirishchiqish yo`llari inobatga olinsin, obyektga chegaradoshlardan rozilik xati olinsin hamda zarur hollarda piyodalar yo`lagi inobatga olinsin; l) ushbu arxitektur rejalashtirish topshirig`i qurilishga ruxsat beruvchi hujjatlarsiz qurib qo`yilgan yoki rekonstruksiya qilib qo`yilgan binolarga amal qilmaydi m) qurilishi yoki rekontruksiya qilinishi ko`zda tutilayotgan ob’yektni yon qo`shnilar va jamoat roziligi olinganidan so`ng loyihalashtirilsin.

8	**Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасида мавжуд бино ва иншоотларни бузиш ёки фойдаланиш бўйича таклифлар**	Loyihachining loyiha topshirig‘iga muvofiq: a) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida buzilishga tushadigan bino va inshootlarga aniqlik kiritilsin; b) hududdagi mavjud binoinshootning tegishliligiga belgilangan tartibda aniqlik kiritib, konstruksiyasiga o‘zgartirish kiritish belgilansa uning texnik holati bo‘yicha tegishli xulosa olinsin; v) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida mavjud bino va inshootlardan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilsin. g) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida yer osti muhandislik tarmoqlar aniqlanganda ularni belgilangan tartibda ko`chirish yoki muhofaza mintaqasini saqlash belgilansin.
9	**Объектни босқичма-босқич қуриш**	Qurilishning murakkabligiga va buyurtmachi tomonidan beriladigan loyiha topshirig`iga muvofiq ShNQ 1.03.01-16 talablariga rioya etgan holda qurilishni bosqichma-bosqich olib borish va foydalanishga topshirish jarayonlari nazarda turilsin. Qurilishning murakkabligiga va buyurtmachi tomonidan beriladigan loyiha topshirig‘iga muvofiq qurilishni bosqichmabosqich olib borish va foydalanishga topshirish jarayonlari nazarda tutish.
10	**Ер майдонини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш**	Loyihaning obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish qismida O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023 yil 29 dekabrdagi 459-son QR 01.01-23 “Hududlarni obodonlashtirish ishlari” qurilish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida buyrug‘i talablariga rioya etish va ShNQ 2.07.01-23 talablariga va me‘yorlariga muvofiq quyidagilar: 1) obyektda igna bargli, manzarali, mevali daraxtlar hamda butalar va gullar ekilishi; 2) sug`orish tizimlari tashkil etilsin 3) ko‘kalamzorlashtirish hududlarining gazon o‘tlari bilan qoplanishi; 4) landshaft arxitekturasining yechimlaridan foydalangan holda daraxtlarning qanday shakllarda bo‘lishi inobatga olinsin; 5) yo‘laklar chetlariga beton (“barder”)lar yotqizish va zarur hollarda beton “bordyur”larga shakl berilishi ko‘rsatilsin. Daha ichidagi avtomobil yo‘llari, trotuarlar, piyodalar yo‘llarini va maydonchalarni qurishda ShNQ 2.05.02-07 talablariga rioya qilinishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil, 30 noyabrdagi «2030 yilgacha O‘zbekiston atrof muhitni saqlash konsepsiyasi»ga asosan, hamda Maratoriydan kelib chiqib ko‘p yillik daraxtlar saqlab qolinishi shart. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023 yil 29 dekabrdagi 459-son QR 01.01-23 “Hududlarni obodonlashtirish ishlari” qurilish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida buyrug‘i 12-bob. Sanoat korxonalarining sanitariya muhofaza hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish talablariga rioya etilsin.
11	**Санитария-гигиена талаблари**	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 15.08.2025 yildagi 24-son Sanitariya-muhofaza zonasiga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (0103-25-son SanQvaN) tasdiqlash to‘g‘risida qarori talablariga rioya etilsin. Loyihalashtirish jarayonida qurilish materiallari turlarini belgilashda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariyagigiyena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanilishi shartligi ko‘zda tutilsin. Ob`yekt qurilishi uchun tanlangan yer maydonidan oqib o‘tuvchi kanal yoki ariq mavjud bo‘lgan taqdirda, loyihadagi suv yo‘nalishi hamda suvning muhofaza etish masofalarini saqlash va qirg‘oqlarni obodonlashtirish va mustahkamlash ishlari loyihalashtirish jarayonida inobatga olinsin. SanPiN 0146-04 “O‘zbekiston iqlim sharoitlarida turar-joy binolarini loyihalashning sanitariya qoidalari va me’yorlari”. SanPiN 0096-00 “Radiotexnika obyektlari vujudga keltiradigan elektr magnit maydonlari ta’siridan aholini muhofazalash sanitariya qoidalari va me’yorlari” va SanQvaN 0267-09 “Jamoat binolari, turar joy binolarining xonalarida va hududlarida yo‘l qo‘yiladigan shovqinni ta’minlash bo‘yicha sanitariya normalari va qoidalari” talablari inobatga olinsin.

12	**Ёнғиндан сақланиш талаблари**	Chirchiq shahridagi "O‘zbekximmash" qozonxonasi va issiqlik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, individual issiqlik punktlarini o‘rnatish ishlarini bajarish jarayonida shahartuman yong`in hafvsizligi bo`limi tomonidan berilgan xatda ko`rsatilgan talablarr bajarilishi shart. Yong‘indan saqlanish talablari ShNQ 2.01.02-04 shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan loyihalashtirilsin. ShNQ 2.09.21-22 “Yong‘inqutqaruv depolari vapostlari”; ShNQ 2.01.19-22 “Portlabyonish va yong‘in xavfi bo‘lgan xonalar, bino va inshootlar hamda tashqi qurilmalar toifalarini aniqlash”; ShNQ 2.04.09-2007 va ShNQ 2.07.01-03 shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan loyihalashtirilsin. ShNQ 2.09.02-19 talablariga binoan portlashyong`in xavfsizligi bo`yicha xona va binolar mos ravishda A, B, V1- V4, G, D toifalarga va ularda joylashgan texnologik jarayonlar va mavjud bo`lgan (ishlayotgan) yoki saqlanayotgan modda va materiallar, maxsulotlar, xomashyo, va ularni joylashishga qarab mos ravishda A, B,V,G, D toifalarga bo`linadi. Yong`in o`chirish avtomatik qurilmasi, avtomatik yong`in signalizasiyasi, yong`in to`grisida xabar berish tizimlari amaldagi normativ xujjatlar, shuningdek belgilangan tartibda tasdiqlangan maxsus ro`yxat talablariga muvofiq ko`zda tutilishi lozim.
13	**Экология талаблари**	Loyihalashtirishda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish meyorlariga (O‘zbekiston Resoublikasi Prezidentining 30.12.2021dagi PQ-76-sonli, O‘zbekiston Resoublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.04.2022-yildagi 165-sonli qarorlari) amal qilinsin. O‘zbekiston Resoublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020dagi 541-sonli qaror talabida loyiha hujjatlari bo‘yicha ekologik ekspertiza hulosasi olinsin. Loyihalashtirish jarayonida hududda mavjud ko‘p yillik manzarali daraxtlar toliq saqlab qolinsin. Loyihalashtirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi "O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDAGI SUV OBYEKTLARINING SUVNI MUHOFAZA QILISH VA SANITARIYA MUHOFAZAZONALARINI BELGILASH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA" 981-sonli qaroridagi talablarga amal qilgan holda muhofaza hududlari saqlansin.
13.1	**Алоқа, почта ва телекоммуникация талаблари**	Loyihalashtirishda aloqa, pochta, axborotlashtirish va telekommunikatsiya sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, davlat standartlari va me’yorlariga amal qilinsin. O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 24.04.2024 yildagi 01/2-13-son ShNQ 2.04.20-22 “Turar joy obyektlari va jamoat binolarining muhandislik uskunalari uchun kommunikatsiya va dispetcherlash tizimlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida buyrug‘i talablariga asosan loyihalashtirilsin.
13.2	**Тупроқни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш талаблари**	Loyihalashtirishda tuproqni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga qo‘yilgan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablarga amal qilinsin. O‘zbekiston Respublikasining 02.02.2024 yildagi O‘RQ-903-son Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida qonuni talablariga rioya etilsin.

14	**Лойиҳани келишиш**	Shaharsozlik hujjatlarini, loyihalash tashkiloti tomonidan, Bosh boshqarma qoshidagi «Arxitektura va shaharsozlik kengashiga» oʻrnatilgan quyidagi tartibda kelishish uchun taqdim etilishi kerak: - Ob'ektning shahar, qishloq aholi punktlari hududidagi joylashgan oʻrni (situasionniy plani); - Loyihalashtirilayotgan "yog`ochni qayta ishlash, pulpa va qog`oz sanoati ob`yekti" joylashgan hududning chegaralari va qizil chiziqlari tushirilgan 1:500 nisbatdagi topoxaritada hududning bosh rejasi; - Binoning tarz va yon koʻrinishlari; - Binoning tarhi, qirqimlari va xonalar eksplikasiyasi; - Ob'ektning holati va mavjud bino va inshootlar bilan bogʻliqligi (razvyortka fasadov) va fotosuratlar; - Perspektiva; - Dastlabki eskiz loyihalari va bosh plani quydagi shahar mutasaddi idoralari bilan kelishilgan boʻlishi kerak; - Sanitariyaepidemiyalogik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati markazi; -Tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi; - Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi; - Yoʻl xarakati xavfsizligi boshqarmasi; - Nogironlar jamiyati; - Loyiha hujjatlari «Arxitektura va shaharsozlik kengashi»ning ijobiy xulosasidan soʻng, Ekspertiza boshqarmasiga taqdim etilsin. - Kelishish uchun loyiha-smeta hujjatlarining elektron koʻrinishdagi eskiz loyihasi ilova qilinadi. Ilova qilinadigan hujjatlar “PDF” yoki “JPEG” formatda boʻlishi kerakShaharsozlik hujjatlarini, loyihalash tashkiloti tomonidan, Bosh boshqarma qoshidagi «Arxitektura va shaharsozlik kengashiga» oʻrnatilgan quyidagi tartibda kelishish uchun taqdim etilishi kerak: - Ob'ektning shahar, qishloq aholi punktlari hududidagi joylashgan oʻrni (situasionniy plani); - Loyihalashtirilayotgan "yog`ochni qayta ishlash, pulpa va qog`oz sanoati ob`yekti" joylashgan hududning chegaralari va qizil chiziqlari tushirilgan 1:500 nisbatdagi topoxaritada hududning bosh rejasi; - Binoning tarz va yon koʻrinishlari; - Binoning tarhi, qirqimlari va xonalar eksplikasiyasi; - Ob'ektning holati va mavjud bino va inshootlar bilan bogʻliqligi (razvyortka fasadov) va fotosuratlar; - Perspektiva; - Dastlabki eskiz loyihalari va bosh plani quydagi shahar mutasaddi idoralari bilan kelishilgan boʻlishi kerak; - Sanitariyaepidemiyalogik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati markazi; - Tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi; - Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi; - Yoʻl xarakati xavfsizligi boshqarmasi; - Shahar Nogironlar jamiyati; - Loyiha hujjatlari «Arxitektura va shaharsozlik kengashi»ning ijobiy xulosasidan soʻng, Ekspertiza boshqarmasiga taqdim etilsin. - Kelishish uchun loyiha-smeta hujjatlarining elektron koʻrinishdagi eskiz loyihasi ilova qilinadi. Ilova qilinadigan hujjatlar “PDF” yoki “JPEG” formatda boʻlishi kerak.

15	**Қўшимча талаблар**	Loyiha tashkiloti loyihani kelishish davomida viloyat Qurilish bosh boshqarmasi yoki uning huzuridagi hududiy arxitektura shaharsozlik kengashi tomonidan berilgan tavsiyalar va ekspertiza xulosasida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etadi. Buyurtmachi o‘z xohishiga ko‘ra qurilish ishlari tugagandan so‘ng obyekt hududning ijro topotasvirini (yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiyalari aks ettirilgan holda) bajarilishini ta’minlaydi va uning bir nusxasini viloyat Qurilish bosh boshqarmasiga topshiradi. Loyihani ishlab chiqishda zilzilaga bardoshlik talablari inobatga olinsin. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 18.01.2024 yildagi 14-son ShNQ 1.04.03-23 «Bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish» shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida buyrug‘i talablariga rioya etilsin. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 08 yanvardagi 09 sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimidagi gidrogeologiya korxonalari tomonidan gidrogeologik ijobiy hulosalar olinsin. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrdagi 342-son qaroriga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo`llari uchun xavfsizlik mintaqasi (qizil chiziqqacha bo`lgan masofa) saqlansin. Loyihani ishlab chiqishda atrofdagi binolarga bog‘lanishi hisobga olinsin- Rekonstruksiya ishlarini boshlashdan avval «Toshkent viloyati qurilish sohasidagi hududiy nazorat inspeksiyasi»dan rekonstruksiya (qurilish-montaj) ishlarini o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish shart. - Rekonstruksiya va qurilish ishlari tugagandan so‘ng, hududning ijro topotasvirini bajarib, “Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy tekshirish Davlat instituti” Davlat unitar korxonasiga topshiriladi. - Qurilish ishlarini bajarishdan avval, estetik ko‘rinishini ta'minlash, hamda xavfsizlik texnikasiga rioya etish maqsadida, ob'ekt quriladigan hudud atrofini sifatli o‘ralishi taminlansin. - Hududdagi o‘z-o‘zini boshqarish organlari va yon atrofidagi qo‘shnilar bilan loyiha ishlari kelishilsin. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 09 sentyabrdagi «Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida»gi PF-220-sonli qarori asosan Siz tomondan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda loyixa xujjatlariga asosan qurilayotgan yoki rekonstrutsiya qilinayotgan obyektga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh suv isitish qurilmasi hamda quyosh panellari) elektr va issiqlik energiyasi bilan ta’minlash va qurilayotgan obyektda energiya resurslaridan samarali foydalanishingiz so‘raladi".

Муҳандислик тармоқларига уланиш шартлари:

16	**Ичимлик сув тармоғи**	O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 256 sonli qaroriga muvofiq ichimlik suv tarmoqlaridan foydalanish bo`yicha texnik shartlar olinsin. (Loyihalashtirish jarayonida texnik shart talablariga rioya etilsin). SHNQ 2.04.02-2019 "Suv ta`minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar"ga rioya etilsin.
17	**Оқава сув тармоғи (канализация)**	O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 256 sonli qaroriga muvofiq ichimlik suv tarmoqlaridan foydalanish bo`yicha texnik shartlar olinsin. (Loyihalashtirish jarayonida texnik shart talablariga rioya etilsin). QMQ 2.04.03-19 “Kanalizatsiya. Tashqi tarmoqlar va inshootlar” qurilish me’yorlari va qoidalariga rioya etilsin.
18	**Электр тармоғи**	O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 31 avgustdagi 555 sonli qaroriga muvofiq elektr tarmog‘idan foydalanish bo`yicha texnik shartlar olinsin. (Loyihalashtirish jarayonida texnik shart talablariga rioya etilsin).

19	**Газ тармоғи**	O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 256 sonli qaroriga muvofiq gaz tarmoqlaridan foydalanish bo`yicha texnik shartlar olinsin. (Loyihalashtirish jarayonida texnik shart talablariga rioya etilsin). SHNQ 2.04.08-13 "Gaz ta`minoti. Loyiha normalar", SHNQ 2.04.08-22 “Gaz ta’minoti. Loyihalash talablari”iga rioya etilsin.
20	**Телефон алоқа тармоғи**	Texnik xulosa olish sharti bilan.
21	**Иссиқлик ва иссиқ сув тармоғи**	O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 256 sonli qaroriga muvofiq ichimlik suv tarmoqlaridan foydalanish bo`yicha texnik shartlar olinsin. (Loyihalashtirish jarayonida texnik shart talablariga rioya etilsin). SHNQ 2.04.07-22 “Issiqlik tarmoqlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilsin.
22	**Дренаж тармоғи**	ShNQ 3.07.04-2019 talabiga binoan irrigatsiya kollektor drenaj tarmoqlarini loyihalash bo`yicha texnik shartlar olinsin. (Loyihalashtirish jarayonida texnik shart talablariga rioya etilsin). - Hududni obodonlashtrish va ichki yo’laklarni loyihalashtirish jarayonida ob’yekt hududida hosil bo’ladigan yomg’ir suvlarini hududdan oqizib chiqarish uchun beton ariqlari (kichik latoklar) o’rnatilishi ko’zda tutulsin.
23	**Объектни муҳандислик тармоқларига уланиш бўйича буюртмачига ва лойиҳа ташкилотига қўйилаётган талаблар**	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil, 9-dekabrdagi PQ-4545-sonli qarorining bandlari bajarilsin; -O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil, 26 dekabrdagi “Elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob'ektlarini muxofaza qilish qoidalarinitasdiqlash to‘g‘risida”gi 1050-sonli hamda 1998 yil, 15 maydagi 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikasiya liniyalari va inshootlarini qo‘riqlash qoidalariga amal qilinsin. Ob’yektlarni muhandislik tarmoqlariga ulanish tartib-tamoillarni belgilovchi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga rioya etlishi ta’minlansin. Ob’yektga ulanadigan yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiyalari unga chegaradosh o`zga yer uchastkalaridan o`tkaziladigan hollarda muhandislik kommunikatsiyalarining trassalari ushbu yer uchastka egalari bilan kelishilsin. Ob’yektga tegishli yer uchastkasi hududidan o`tgan yer osti va yer ustu muhandislik kommunikatsiyalari ko`chirilishi (zarurati bo`lganda) loyihada inobatga olinsin. Ob’yetga ulanadigan yer osti muhandisli kommunakatsiyalarini yotqizishda ko`chalarni yopiq holda kesib o`tishni mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilsin. Muhandislik tarmoqlarini va inshootlarni loyihalovchi tashkilotga quyiladigan talablar: 1. Barcha muhandislik tarmoqlarining loyihasi o‘z borasidagi QMQ qoidalari talablaridagi qoida va me’yorlarga javob berishi kerak, ya’ni: - SHNQ 2.04.02-2019 "Suv ta`minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar. - Binolar ichki vodoprovodi va kanalizatsiyasi QMQ 2.04.01-98; - Uy joylar va umumjamoat obyektlarida elektr uskanalarini o‘rnatish QMQ 2.04.17-98; -Elektr tarmoqlari va inshootlarida himoya chegaralari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26 dekabrdagi № 1050-sonli qarorida o‘rnatilgan barcha talablar bajarilishi shart. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 256 sonli qarori hamda 2021 yil 31 avgustdagi 555 sonli qaroriga muvofiq muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo`yicha texnik shartlar olish ko`zda tutilsin.

24	**Архитектура-режалаштириш топшириғининг амал қилиш муддати**	Ushbu arxitektura-rejalashtirish topshirig`i faqatgina loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun huquqiy hujjat hisoblanib, qurish va buzish ishlarini boshlashga asos bo`la olmaydi. (Eslatma: Arxitektura rejalashtirish topshirig`ini tayyorlash uchun asos bo`luvchi xujjat qonunda belgilangan tartibda bekor qilinsa yoki o`z kuchini yoqotgan deb topilsa mazkur Arxitektura rejalashtirish topshirig`i o`z kuchini yoqotgan deb xisoblanadi hamda uni tayyorlagan shaxs xech qanday (shu jumladan moddiy) javobgarlikni o`z zimmasiga olmaydi.) Arxitektura rejalashtirish topshirig`idagi shartlar hamda bandlari bajarilmagan taqdirda o`z kuchini yoqotadi. Ushbu ART berilgan sanadan boshlab ikki yil davomida amal qiladi.

Ob'yektning taxminiy joylashuvi
SXEMASI

Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini tayyorlagan mutaxassis: I.Xasanboyev

АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ ТОПШИРИҒИНИ ИШЛАБ ЧИҚДИ:

Архитектура-режалаштириш топшириғини ишлаб чиқиш бўлими раҳбари:	Imomqulov Sherzod Alisherovich
Архитектура-режалаштириш топшириғини тайёрлаган мутахассис:	HASANBOYEV ISLOMJON ZOKIRJON O‘G‘LI

АРТ лойиҳаолди ҳужжат бўлиб, ер участкаси ёки бино ва иншоотга мулк ҳуқуқини тасдиқламайди ҳамда қурилиш-монтаж ишларини бошлаш учун асос ҳисобланмайди.

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

1645